

## MAQOMAT VA HOLAT PSIXOLOGIYASI

## СУФИЗМ И СИТУАЦИОННАЯ ПСИХОЛОГИЯ

## AUTHORITY AND SITUATION PSYCHOLOGY

*Shukurova Nargiza Ikramovna*  
*Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi*

*Шукурова Наргиза Икратовна*  
*Преподаватель Каршинского международного университета*

*Shukurova Nargiza Ikramovna*  
*Teacher of Karshi International University*

*Annotatsiya: mazkur maqolada tariqatda maqomat tushunchasi, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti, so'fyning manzilga yetishda bekatlarni bosib o'tish uchun moddiy va ma'naviy ehtiyojlardan voz kechishi, bu ehtiyojlarni psixologik tahlili haqida fikr yuritilgan. Amerikalik olim Abraham Maslouning ehtiyojlar piramidasi tariqatdagi har bir maqomatga solishtirish yordamida solikning ruhiy holatlari tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: tasavvuf, maqomat, manzil, bekat, so'fiy, solik, futuvvat, ehtiyojlar iyerarxiyasi, kognitiv ehtiyojlar, o'z-o'zini anglash ehtiyojlari, xavfsizlik talablari, transandantal ehtiyojlar.*

*Аннотация: в данной статье рассматривается понятие макамата в тарикате, умственное и духовное совершенство налога, отказ суфия от материальных и духовных потребностей ради достижения пункта назначения, а также психологический анализ этих потребностей. Пирамида потребностей американского ученого Абрахама Маслоу была проанализирована путем сравнения каждой позиции в иерархии.*

*Ключевые слова: мистика, статус, предназначение, станция, суфий, налог, футувват, иерархия потребностей, познавательные потребности, потребности самореализации, потребности безопасности, трансцендентальные потребности.*

*Annotation: this article discusses the concept of maqamat in the tariqat, the mental and spiritual perfection of the tax, the relinquishment of material and spiritual needs of the Sufi in order to reach the destination, and the psychological analysis of these needs. American scientist Abraham Maslow's pyramid of needs has been analyzed by comparing each position in the hierarchy.*

*Key words: mysticism, status, destination, station, Sufi, tax, futuvvat, hierarchy of needs, cognitive needs, self-realization needs, security needs, transcendental needs.*

Tasavvuf Islom olamida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ta'limotdir. Tasavvuf inson ruhiyati, ma'naviy olami, insonning ruhiy va axloqiy kamolotiga yetaklovchi yo'ldir. Tasavvuf Alloh Taoloning jamoliga erishish uchun nafsni jilovlash va tarbiyalash, axloq va ma'naviyatni go'zallashtirish, jismoniy ehtiyojlardan voz kechib, faqat ruhiy kamolotga erishish yo'lidir. Tasavvufning asoslariga nazar tashlasak, so'fiylarning o'z-o'zini tarbiyalashlari, ruhiy-psixologik mashqlari, amaliy harakatlari kamolotga erishishda muhim omillardan hisoblanadi. Inson ikki asosdan, ya'ni moddiyat va ruhiyatdan iboratdir. Shu sababli unga ham moddiyat ham ruhiyat xususiyatlari mavjuddir. Agar insonga moddiyat g'alaba qozonsa unda hayvoniylik, ruhiyat g'alaba qozonsa ilohiylik rivojlanishi tasavvuf falsafasi ta'limotida ta'kidlab o'tilgan. So'fiy ruhiy taraqqiy etgan sari jismoniy ehtiyojlarni tark etib boradi va koinot bilan aloqa bog'lab mo'jiza ko'rsata boshlaydi. So'fiylar o'zligidan va foniy dunyodan voz kechib, Haq yo'lida o'zligini qayta topgan kishilar bo'lib, ko'rinishida bandayu aslida ozod kishilardir. So'fiylar bu yo'lni bosib o'tishlarida mashaqqat va qiyinchiliklarga duch keladilar. Keling so'fiylarning mana shu mashaqqatli yo'lni bosib o'tishlarida, o'z moddiy va madaniy ehtiyojlardan qay tariqa voz kechishlarini psixologik nuqtai nazarda tahlil qilib ko'rsak.

Psixologiyada jonli mavjudot hayot kechirishning yaqqol shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va mazkur sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat ehtiyoj deb ataladi. Ehtiyojlar insonning kun ko'rishi va yashashi uchun zarur narsalardir. Inson faolligining manbai ehtiyojlar hisoblanadi va ular insonda ma'lum turlarga bo'linadi. Psixologiyada olimlar ehtiyojlar haqida fikr yuritishar ekan, ularni tahlil qilishda turli xil yondashishadi. Inson xulq-atvoriga nima turtki bo'ladi? Amerikalik olim gumanistik yondashuv tarafdori Abraham Maslouning ehtiyojlar piramidasi motivatsiya mavzusidagi eng mashhur nazariyalardan biri hisoblanadi. Tariqatda maqol va hol tushunchalari muhim o'rin tutadi. "Maqomat" – maqom (manzil) so'zining ko'pligi bo'lib, solikning ruhiy-ma'naviy kamoloti bosqichlarini anglatadi. Tariqatda maqomlar qayd etilgan

va ayni damda har bir maqomga erishish uchun ma'lum bir ehtiyojlarni jilovlash yoki ulardan voz kechishligi ko'rsatilgan. Abraham Maslouning fikricha, bizning xatti-harakatlarimiz ma'lum bir ehtiyojlarni qondirishga yo'nalgan. Har bir bekat malum ehtiyojlar iyerarxiyasiga mos tushadi va ularni birma bir ko'rib chiqamiz. Ehtiyojlar iyerarxiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Biologik va fiziologik ehtiyojlar - havo, oziq-ovqat, ichimlik, boshpana, issiqlik, jinsiy aloqa, uxlash va h.k. Tariqatda hafsni jilovlash, parhez tutmoq, bulg'anishlardan saqlanish tariqat maqomlaridan va'ra deb nomlanadi. Va'raning uch ko'rinishi bor: til va'rasi, ko'z va'rasi va qalb va'rasi. Bundan shuni anglaymizki tilga, ko'zga, quloqqa va oyoqqa band solish. Insonda fiziologik ehtiyojlar hayotni saqlab qolish va davom ettirishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarga bog'liqligida ifodalanadi. Insonlar yeyish, ichish, jinsiy yashashga, uyquga, issiq va sovuqdan saqlanishga bo'lgan ehtiyojlar va solik o'z nafsini tiyishi, yeyish ichishini jilovlashi, kechalari uyqudan kechishi haqida aytilgan. Shu bilan birga bu ehtiyojlarni jilovlash uchun sabr va toqat muhim ahamiyat kasb etadi. Va'radan tashqari tariqatning zuhd bekati ham shu iyerarxiyaga mos tushadi. Zuhd – vara'ning davomi hisoblanadi, bu ham parhez qilishdir. Ammo bunda ichimlik va taomdan saqlanish, harom va halolni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd solik uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo'lmaslikdir. Hadis: Kimki dunyodan parhes etsa, uning qalbi tajalliyot nuri kiradigan joyga aylanadi. Junayd Bag'dodiy so'zi: «Zuhd – qo'lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o'zga har narsadan pok saqlash demak».

2. Xavfsizlik talablari - unsurlardan himoya qilish, xavfsizlik, tartib, qonun, barqarorlik, qo'rquvdan ozod bo'lish. Tariqat maqomlaridan aynan xavf maqomati bor, unga qalbning ishonchdan, imon aminidan chiqishi, ikkilanish, tahlika. Vaqtinchalik shayton nayranglari ham ko'ngilga havf, qo'rquv soladi. Solik azobdan emas, balki makrdan, nafs makridan qo'rqadi. Aslida shayton imoni mustahkam odamdan qo'rqishi kerak. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasida xavfsizlik talablari - shaxsning fiziologik ehtiyojlari qondirilgach, xavfsizlik va xavfsizlikka bo'lgan talablar sezilarli bo'lib qoladi. Odamlar hayotlarida tartibni, bashorat qilishni va nazoratni boshdan kechirishni xohlashadi. Ushbu ehtiyojlarni oila va jamiyat amalga oshirishi mumkin. Bundan shunday xulosa keladiki, solik boylik orttirish, yaxshi yashashga bo'lgan qiziqish, uy-joy tashvishlaridan ozod kishidir. Ehtiyojlar iyerarxiyasidagi bu qismga tariqatning faqr manzili mos tushadi, ya'ni faqr bu benavolik, qashshoqlikdir. Soliklar uchun ulug'vor ilohiy mohiyat kasb etish bo'lib, Allohga bandalikni chin dildan yuqori darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo'ldagi tuproq misol nomu nishonasiz bo'lish, Yaratgan nazdida o'zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olamu Allohga tegishli, insonning vujudi ham o'ziniki emas. Chunki u ham Yaratganning mulkidir. Faqrni ana shunday mazmunda anglagan odam tasavvuf mohiyatiga ham yetib boradi. Demak solik xavfsizlik ehtiyojlaridan kechishi uchun yanada Allohga yaqinlashtiradi.

3. Sevgi va tegishli bo'lish ehtiyojlari - do'stlik, yaqinlik, ishonch va qabul qilish, mehr va muhabbatni qabul qilish va berish. Hamkorlik, guruhning bir qismi bo'lish (oilal, do'stlar, ish). Do'stlik, mehr-muhabbat va yaqinlikka bo'lgan ehtiyoj ham birlamchi bosqichdagi ehtiyojning yangi darajasidagi zaruriyatdir. Ular ijtimoiy xarakterdagi ehtiyojlar sirasiga kiradi. Suhbat, xilvat, jamiyat. Xilvatdan maqsad yakka bo'lish, ya'ni Alloh Taolo bilan birga bo'lish demakdir. Ikki kishi bir joyda bo'lsa, bu xilvat emas, balki jamiyatdir. Shu bilan birga, suhbat kamida ikkita odam bo'lishini taqozo etadi. Agar suhbatdoshlar suhbati irfon mavzuida bo'lsa, agar ularning bahs-munozarasi Haqning haqiqatiga yaqinlashtirsa, demak, bunday anjuman xilvat o'rnini bosa oladi. Chunki xilvatdan murod ma'rifatdir, suhbatdan murod ham ilohiy ma'rifatdir. Solik sevgi va tegishli bo'lish ehtiyojlaridan voz kechishni o'zida mukammal tarzda shakllantira olsa ruhiy kamolot sari qadam bosa oladi. Abraham Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasidagi bu qismda tasavvufdagi futuvvat tushunchasi ham mos keladi. Futuvvat bu - umrni do'stlar xizmatiga bag'ishlash, yaxshilik qilishdan charchamaslik, faqat yaxshilikni o'ylab, borini o'zgalilar bilan baham ko'rib, ezgu xulq-atvoriga ega bo'lish, piru ustozlar, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, halol-pokiza insonlar suhbatini qozonishdir. Demak bu tushunchalar ehtiyojlar iyerarxiyasining aynan shu bandiga mos tushadi. Futuvvat – mardlik tariqati, o'zaro yordam, muruvvat va mehribonlik ko'rsatish, fidoyilik va fidokorlik ilmidir. Ma'naviy va intellektual yolg'izlanish oddiy jismoniy tarkidunyochilikdan yuqori qo'yilgan. Ko'pchilik so'fiylar vaqti-vaqi bilan dunyodan doimiy yolg'izlikka ketishni afzal ko'rganlar. Yolg'izlik zarurati va jamoaviy hayot o'rtasidagi mo'rt muvozanatni saqlashga intilganlar. Ular xilvatning shubhasiz ustunligini e'tirof etib, o'z shogirdlarini kichikroq maslakdoshlar jamoasi bilan yashashga va jamiyatning manfaatlari bilan hisoblashishga chaqirganlar.

4. Hurmatga muhtoj - Maslou ikki toifaga ajratilgan: (1) o'zini qadrlash (qadr-qimmat, yutuq, mahorat, mustaqillik) va (2) boshqalar tomonidan qabul qilinishi va qadrlanishi zarurligi (masalan, mavqei, obro'si). Ehtiyojlar piramidasining bu qismida solik ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichida bu dunyo lazatlarida kechib, haq yo'lidagi harakatlari uchun maqomatning rizo bekatiga mos keladi. Rizo bu qalbdan qabohat - kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo'ysunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirishdir. Qazo amriga taslim bo'lgan qalbning sururi. Rizo - bandaning o'z rizosidan chiqib, Alloh rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra e'tiroz qilmasligidir. Solikda ushbu maqomda hech narsadan hayajon, g'azab, xafalanish va gina-kudurat bo'lmaydi.

5. Kognitiv ehtiyojlar - bilim va tushunish, qiziqish, izlanish, ma'noga ehtiyoj va bashorat qilish. Ehtiyojlar

piramidasining keyingi pog'onasida hurmatga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Bu ehtiyojlar kishining boshqalar tomonidan tan olinishiga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni mavqe, nufuz, shon-shuhrat, muvaffaqiyat demakdir. Tasavvuf ta'limoti fikriy yangilanishlar, Haq va haqiqatga tashna ilmlilar jam bo'lgan maskan. Solik Alloh yo'lidagi barcha bilimlarni o'zlashtirishi, intilishlari pir tomonidan nazorat qilinadi, solikning ruhiy o'zgarishlarini anglagan zukko pirlar ularni yangi-yangi pog'onalarga ruhlantiradilar. Pir turli vositalar bilan muridni tarbiyalab, uning ichki botiniy olamini boyitish, ham zohiriy va ham so'fiyona ilmlarni o'rgatish barobarida, his va ruhini charxlab, noziklashtirib, qo'l tegsa, jaranglab ketadigan cholg'u asbobiday holga keltirar edi. Bunday to'xtovsiz izlanish, ruhiy iztiroblar zamirida kuchli muhabbat, maqsadga yetishish yo'lidagi bemisl insoniy sidqu vafo, fidoyilik yotardi. Xalq qalbidan joy olgan insonparvarlik g'oyalari, ulug' adiblarga ilhom bergan Soflik, Haqiqat, Go'zallik, Kamolot ideali, shu ideallarga bo'lgan cheksiz muhabbat tasavvufda mujassam. Hazrat Navoiy ta'riflaganday, tasavvuf xilofu ixtilofi bo'lmagan, riyo va manmanlik, da'vo-yu tamani inkor etadigan bir ulug' ta'limotkim, u inson ziynati, tiynatini poklovchi obihayotdir.

6. Estetik ehtiyojlar - go'zallikni, muvozanatni, shaklni va boshqalarni qadrlash va izlash. Solik tasavvuf ahlining bashariy sifatlardan mutlaq qutulishi va ilohiy faqr sifati bo'lmish pok ruh ko'rinishida istig'no olami - Alloh Taolo olamining zaruratlari bepoyonligini qalban idrok etishni anglagan kishidir. Tasavvuf nafsoniy sifatlardan kechishdir. Bu sifatlarda moddiyat, tana bilan bog'liq sifatlardir. Bu yo'lda kurashgan inson takomillashib, kamol topib boradi. Uning aqli, hislari, xarakteri, didi takomillashib boradi. Bular komillik sari yo'ldir. Solik dunyo go'zalliklaridan kechib, qalb go'zalligiga intilgan, dunyoviy bilimlarni o'rgangan, shariat ilmini, ilohiy bilimlarni egallagan va unga amal qila olgan komil insondir.

Komillikka erishish - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot. Komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili, eng qalbi go'zali va eng donosi, komillik Alloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g'ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' homiydir.

7. O'z-o'zini anglash ehtiyojlari - shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish, o'zini o'zi bajarish, shaxsiy o'sish va eng yuqori tajribalarni izlash. «O'ziga qodir bo'lgan hamma narsaga aylanish» istagi (Maslow, 1987, 64-bet). Psixolog Abraxam Maslou inson motivatsiyasi shaxsiy o'sish orqali amalga oshirishga va o'zgarishga intilayotgan odamlarga asoslanganligini ta'kidlagan. O'z-o'zini anglaydigan insonlar - bu amalga oshirilgan va qo'lidan kelgan barcha ishni qila oladigan odamlar. O'z-o'zini anglashning o'sishi odamning butun hayoti davomida mavjud bo'lgan shaxsiy o'sish va kashfiyotga bo'lgan ehtiyojni anglatadi. Maslou uchun inson har doim o'sib boradi va hech qachon bu ma'noda turg'un bo'lib qolmaydi. O'zini realizatsiya qilishda, inson o'zi uchun muhim bo'lgan hayot mazmunini topishga keladi. Solik g'ayb ilmni egallagan, ma'naviy barkamollikka erishgan, ideal xislatlarni o'zida singdira olgan, o'zini kashf qilgan, paydo qilgan, shakllantirgan insondir.

8. Transandantal ehtiyojlar - Insonni shaxsiy o'ziga xoslikdan yuqori bo'lgan qadriyatlar (masalan, sirli tajribalar va tabiat bilan bog'liq ba'zi tajribalar, estetik tajribalar, jinsiy tajribalar, boshqalarga xizmat qilish, ilm-fanga intilish, diniy e'tiqod va hk). Zohidlar va taqvodor so'fiylar o'zlarining havas qilishga munosib xudojo'yliklari, doimiy ibodatlar, axloqiy pokliklari ularni oddiy dindorlardan yuqori martabaga ko'tarilishini to'liq anglayganlar. Solikning vazifasi o'z-o'zini tahlil qilish, o'z "Men"ini bostirish, yuzaga keladigan halokatli ehtirolarni bostirish uchun o'z ixtiyori bilan zimmasiga olgan zohidlik cheklovlariga qat'iy riyo etishdir. "Men" mavjud ekan, haqiqiy so'fiy, ya'ni o'zini Alloh irodasiga to'la bag'ishlash mumkin emasligini solik yaxshi anglagan. Shuning uchun solik butun faoliyatini faqat Alloh yo'lga bag'ishlagan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tasavvufning oddiy xudojo'ylikdan to tariqat sifatida tanilib, rasmiy va g'oyat iyerarxik tashkiliy strukturagacha aylanishi muhim hodisadir. Tasavvufga oid bilimlarni o'rganish islom tarixini yoritish, kalom ilmi, psixologiya va tasavvuf orasidagi munosabatlarni yoritishda katta ahamiyatga egadir. Solikda kechadigan ruhiy-ma'naviy o'zgarishlar uni ehyoijlar iyerarxiyasini pog'onama pog'ona bosib o'tishini ko'rsatadi va ishq yo'lidagi maqomatdan o'tib, manzilga erishishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najmiddin Komilov "Tasavvuf" Toshkent 2009 yil.
2. Aleksandr Knish "Musulmon tasavvufi" Toshkent 2022 yil.
3. Abu Lays as-Samarqandiy "Tanbehul-g'ofiliyn" Toshkent 2003 yil.
4. Салаватулина, Л.Р. Общая психология: учебно-практическое пособие. Челябинск – 2021 г.
5. Ефимова Н.С. Основы общей психологии: учебник. Москва 2013 г.
6. А. Abdullayev "Tasavvuf va uning namoyondalari" Toshkent 2007 y.